

O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI

Ergashov I.O

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Soliqlar va byudjet hisobi ” fakulteti

Dekani o ‘rinboasri Dotsent.

+998999266735, ilhomjonergashev777@gmail.com

Egamova M.G‘

“Soliqlar va byudjet hisobi ” fakulteti

talabasi.

+998931737530, muxlisaegamova03@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston soliq tizimining mustaqillik yillaridan boshlab bugungi kungacha bosib o‘tgan transformatsiya jarayonlari hamda uning mamlakat iqtisodiy o‘rishiga ko‘rsatgan ta’siri tahlil qilingan. Tezisda soliq siyosatining asosiy bosqichlari, soliqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliq yukini kamaytirish va soliq ma‘murchiligini soddalashtirish yo‘lidagi islohotlar yoritilgan. Soliq tizimining biznes muhiti, tadbirkorlik faolligi va investitsiya jozibadorligiga ta’siri o‘rganilib, iqtisodiy o‘rish bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Tezisda xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlillar keltirilib, O‘zbekiston soliq siyosatini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tizimi, soliq siyosati, iqtisodiy o‘rish, transformatsiya, tadbirkorlik, investitsiya, soliq ma‘murchiligi.

KIRISH

Har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishida soliq tizimi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbai bo‘lib, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Soliq siyosati mamlakatdagi biznes muhiti, investitsiya jozibadorligi va tadbirkorlik faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, soliq tizimi tubdan isloh qilinib, xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘lida qator bosqichlarni bosib o‘tdi. Dastlabki yillarda davlat byudjetini to‘ldirish asosiy vazifa sifatida belgilangan bo‘lsa, keyingi davrlarda iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan islohotlar amalga

oshrildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda soliqlarni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish va elektron soliq ma‘murchiligini joriy etish yo‘nalishida sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Mazkur mavzuni o‘rganishning dolzarbligi shundan iboratki, soliq tizimining samaradorligi mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘rishini ta‘minlashda asosiy vositalardan biridir. Iqtisodiy o‘rish va soliqlar o‘zaro uzviy bog‘liq jarayon bo‘lib, bir tomondan soliqlardan tushum davlat byudjeti imkoniyatlarini kengaytirs, ikkinchi tomondan ularning me‘yoriy darajada belgilanishi tadbirkorlik va investitsion faollikni rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, soliq tizimi davlat moliyasining asosiy tayanchi sifatida shakllana boshladi. Dastlabki yillarda soliqqa tortish mexanizmlari asosan byudjetni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifaga aylandi. Shu boisdan ham soliq siyosatida bosqichma-bosqich transformatsiya jarayonlari amalga oshirildi.

Birinci bosqichda (1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshida) soliq stavkalari yuqori bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatiga sezilarli darajada yuk bo‘lgan. Bu davrda asosan davlat byudjeti barqarorligini ta‘minlash asosiy vazifa etib belgilangan.

Ikkinchi bosqichda (2000–2016-yillar) iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida soliq stavkalarini pasaytirish, ayrim imtiyozlar joriy etish va soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimlarini qo‘llash amaliyoti kengaydi. Bu davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Uchinchi bosqich esa (2017-yildan hozirgi kungacha) chuqur soliq islohotlari bosqichi sifatida tavsiflanadi. Xususan, soliq turlari qisqartirildi, yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari kamaytirildi, qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Shuningdek, elektron soliq tizimlari joriy etilib, soliq ma‘murchiligi ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida qayta tashkil etildi. Ushbu islohotlar natijasida soliq yukining kamayishi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, investitsiya muhitining yaxshilanishiga xizmat qildi.

1-jadval

O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari¹³³¹³⁴

Ko‘rsatkichlar	2017	2019	2021	2023
YaIM o‘sishi (%)	4.5	5.7	7.4	5.6
Davlat byudjeti tushumlari (trln so‘m)	62.3	103.5	166.7	254.1
Tadbirkorlik subyektlari soni (mln)	0.36	0.42	0.52	0.65

¹³³ <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview>

¹³⁴ <https://tiu-edu.uz/media/books/2024/05/28/45d7ff92-837d-473d-b3b7-48b17852f048.pdf>

birlikda)				
-----------	--	--	--	--

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, soliq islohotlari natijasida mamlakatda iqtisodiy barqarorlik ta‘minlandi. YaIMning barqaror o‘sishi, byudjet tushumlarining ortishi va eng muhimi, tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishi soliq siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

2-jadval**Soliq islohotlari va xalqaro baholar¹³⁵**

Ko‘rsatkichlar / Baholar	Oldingi davr (2010–2016)	Islohotlardan keyin (2017–2023)
Soliq yukining o‘rtacha darajasi (%)	34–35	27–28
QQS stavkasi (%)	20	15
Yagona ijtimoiy to‘lov (%)	25	12
Jahon banki “Doing Business” reytingidagi o‘rin	166-o‘rin	69-o‘rin

2-jadval ko‘rsatkichlardan ma‘lumki, O‘zbekiston soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortishni soddalashtirish orqali tadbirkorlik muhiti va xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshiladi. Bu esa iqtisodiyotning ochiqqligini oshirib, xorijiy investitsiyalar oqimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

3-jadval**Mavjud muammolar va dolzarb vazifalar¹³⁶**

Muammo	Dolzarb vazifa
Soliq bazasi torligi	Soliq bazasini kengaytirish va yangi soliqqa tortish mexanizmlarini ishlab chiqish
Yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori	Noformal sektorda faoliyat yurituvchi subyektlarni qonuniylashtirish va rag‘batlantirish
Kichik biznes yuklamasi	Soliq ma‘murchiligini soddalashtirish va elektron tizimlarni yanada kengaytirish

¹³⁵ https://en.wikipedia.org/wiki/Economy_of_Uzbekistan

¹³⁶ https://www.researchgate.net/publication/370113014_Economic_Growth_and_Optimal_Tax_Burden_A_Case_of_Uzbekistan's_Economy

Xalqaro tajribaga asoslanadigan bo‘lsak, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, soliq siyosatida barqarorlik va prognoz qilinadiganlik tamoyillari iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o‘ynaydi. Chunki soliq stavkalari va soliqqa tortish tartibining tez-tez o‘zgarishi tadbirkorlik subyektlari uchun noaniqlikni yuzaga keltiradi, bu esa ularning uzoq muddatli rejalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi. Aksincha, soliq siyosatining izchil va barqaror bo‘lishi biznes uchun aniq “o‘yin qoidalari”ni shakllantiradi va investorlarga ishonch bag‘ishlaydi. O‘zbekiston misolida ham bu masala juda dolzarb. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar tadbirkorlik muhitini yaxshilashda muhim qadam bo‘ldi, biroq kelgusida soliq siyosatini yanada prognoz qilinadigan qilish zarurati mavjud. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes vakillari uchun soliq majburiyatlarini oldindan hisoblab chiqish va uzoq muddatga rejalashtirish imkoniyatining mavjudligi ularning faoliyatini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xalqaro moliya institutlari ham investitsiya jozibadorligini baholashda soliq tizimining barqarorligini asosiy mezonlardan biri sifatida ko‘rib chiqadi. O‘zbekistonda soliq siyosatini yanada barqaror va prognoz qilinadigan shaklga keltirish nafaqat ichki tadbirkorlikni rivojlantirish, balki xorijiy investorlarni jalb etishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Shu orqali mamlakatda biznes muhiti mustahkamlanib, iqtisodiy o‘sinhning barqarorligi ta‘minlanadi.

XULOSA

O‘zbekiston soliq tizimi so‘nggi yillarda izchil transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Soliq stavkalarining kamaytirilishi, soliqqa tortish mexanizmlarining soddalashtirilishi va elektron tizimlarning keng joriy etilishi mamlakatda iqtisodiy faollikni oshirishga, tadbirkorlik subyektlari sonining ko‘payishiga va davlat byudjeti tushumlarining ortishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari ham O‘zbekiston soliq islohotlarini yuqori baholab, uni mintaqada eng jadal rivojlanayotgan tizimlardan biri sifatida e‘tirof etmoqda.

Biroq mavjud muammolar ham inkor etilmaydi. Jumladan, soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish hamda kichik biznes uchun soliq ma‘murchiligini yanada soddalashtirish dolzarb masalalar bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, soliq siyosatida barqarorlik va prognoz qilinadiganlik tadbirkorlik muhitini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, O‘zbekiston kelgusida soliq siyosatini yanada izchil va barqaror shakllantirish orqali nafaqat ichki iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishi, balki xorijiy investitsiyalar oqimini ham kuchaytirishi mumkin. Soliq tizimidagi transformatsiya mamlakat iqtisodiy o‘shini jadallashtirishga xizmat qilmoqda va uni yanada takomillashtirish O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (2020). Yangi tahrir. Toshkent: Adolat nashriyoti.
2. Maxmatqulovich, X. K., va boshqalar. (2025). Buxgalteriya hisobi asoslari va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi o‘rni. Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi, 19(3), 120–125.
3. Yangiboev, S. J. (2025). O‘zbekiston agrar sektoriga investitsiyalarni jalb etish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(7), 1–8.
4. International Monetary Fund (IMF). (2023). Uzbekistan: Tax Policy Reforms for Inclusive Growth. Washington, DC: IMF Country Report.
5. World Bank. (2022). Doing Business Reforms in Uzbekistan: Taxation and Business Climate. Washington, DC: World Bank Publications.
6. Abdullayev, A. (2024). O‘zbekiston soliq tizimida transformatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy o‘rishga ta’siri. Iqtisodiyot va moliya jurnali, 6(2), 45–53.
7. Xursanaliyev, B. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat boshqaruvi qo‘llab-quvvatlanishida tajriba. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 10, 21–24.